

INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O'QITISHDA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV

Ergasheva Nafisa Ikrom qizi

Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti

Bakalavr I bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va lingvokulturologiya tadqiqi, frazeologik birlikarning tilning lug'at boyligida tutgan o'rni, idiomalarni o'qitishda etimologiyaning roli, ba'zi ingliz iboralarning kelib chiqish tarixi va ekvivalentsiz idiomalarning lingvokulturokologik ahamiyati ilmiy tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, frazeologik birliklar, til, ibora, til tarixi, etimologiya, mentalitet, ekvivalent.

LINGUOCULTURAL APPROACH TO TEACHING PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH

Ergasheva Nafisa Ikrom qizi

Karshi State university Faculty of Foreign languages

First year student in Bachelor's

Annotation: This article is a scientific study of language and linguoculturology, the role of phraseological units in the vocabulary of the language, the role of etymology in teaching idioms, the history of the origin of some linguistic expressions, and the linguoculturological significance of idioms without equivalents.

Keywords: Linguoculturology, phraseological units, language, expression, language history, etymology, mentality, equivalent.

ЛИНГВОКУЛТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРЕПОДАВАНИЮ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Эргашева Нафиса Икром

Каршиский государственный университет

Факультет иностранных языков Студентка 1-го курса бакалавриата

Примечание: В данной статье научно исследуется изучение языка и лингвокультурологии, роль фразеологических единиц в лексике языка, роль этимологии в обучении идиомам, история происхождения некоторых английских выражений и лингвокультурологическое значение идиом без эквивалентов.

Ключевые слова: лингвокультурология, фразеологические единицы, язык, выражение, история языка, этимология, менталитет, эквивалент

KIRISH. XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. U tilda aks etgan milliy madaniyat, mentalitet, ruhiyat va tarixiy tajribani o'rganadi. Jumladan, V.Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir"

Nutqda ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanishidan tuzilgan birikmalar ham qo'llanadi. Bunday birikmalarning ayrimlari nutq jarayonida tuziladi, ayrimlari esa tilda tayyor birikma shaklida mavjud bo'ladi. Ular bir-biridan o'ziga xos belgilari bilan farq qiladi.

Nutq jarayonida tuzilgan birikma kamida ikkita mustaqil so'zdan tashkil topadi va murakkab tushuncha ifodalaydi. Bunday so'z birikmasi ifodalaydigan tushuncha tarkibidagi so'zlarning ma'nosi asosida yuzaga keladi: yomon bola. Bunday so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning ayrimlari ajrala oladi: yomon bola – yaxshi bola. Shuning uchun ular erkin so'z birikmasi deb yuritiladi.

Tilda ko'p vaqt bir qolipda qo'llanaverib, bo'linmaydigan holatga kelib qolgan birikmalar mavjud. Masalan, "tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq", "qo'y og'zidan cho'p olmagan", "qulog'idan kun ko'rinadi" kabi. Bunday birikmalar frazeologik birliklar deb ataladi.

Har bir tilning o'ziga xos frazeologik birliklari mavjud bo'lib, ular tilning lug'at boyligiga ko'rk berib turadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki nutqimizda oddiy so'z yoki so'z birikmasining o'rniga iboradan foydalansak, nutqimizni yanada ta'sirchan ifodalash imkoniga ega bo'lamiz. Masalan, "U yakuniy natijani eshitgandan so'ng tushkunlikka tushdi" va "U yakuniy natijani eshitgandan so'ng hafsalasi pir bo'ldi" gaplari bir-biridan farq qoladi. Ya'ni birinchi gapda hech qanday til bo'yoqlarisiz holat tasvirlanayotgan bo'lsa, ikkinchi gapda keltirilgan "hafsalasi pir bo'lmoq" iborasi orqali juda xafa bo'gan ma'nosi gapning ta'sirchanligini oshiryapti.

Iboralar turg'un birikma hisoblanib, so'zma-so'z tarjima qilinmaydi. Inglizcha "To kick the bucket" iborasi so'zma-so'z tarjimada "kick" tepmoq, "bucket" chelak ma'nosini anglatadi, ya'ni "chelakni tepmoq". Ammo bu ibora odatda kimningdir o'limini yengil yoki hazil bilan ifodalash uchun ishlatiladi. Ko'pincha rasmiy yoki jiddiy kontekstlarda emas, balki oddiy suhbat yoki hikoya qilishda ishlatiladi. Bunda mazmunni tushunish va tarjima bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Bu iborasining kelib chiqishi noma'lum, ammo uning etimologiyasi haqida bir nechta nazariyalar mavjud. Bir nazariyaga ko'ra, bu odamning bo'yniga ilmoq bog'lab, chelak

ustida turib, keyin chelakni ostidan tepib, o'z joniga qasd qilishi g'oyasidan kelib chiqqan. Boshqa bir nazariyaga ko'ra, bu hayvonlarni osib qo'yish va so'nggi daqiqalarida chelakni tepib yuborish orqali so'yish an'anasidan kelib chiqqan. Vaqt o'tishi bilan bu ibora shunchaki "o'lish" degan ma'noni anglatishga aylandi. Kelib chiqishidan qat'i nazar, bu ibora ingliz tilida keng tushuniladigan va keng qo'llaniladigan iboraga aylandi.

O'zbek tilida bir o'q bilan ikki quyinni urmoq iborasi mavjud bo'lib, bir vaqtning o'zida ikkita ishni bajarish, kam harakat bilan ko'proq natijaga erishish ma'nosini bildiradi. Bu ibora ingliz tilida ham bor bo'lib, "kill two birds with one stone" idiomasi to'g'ri keladi. Tarjimasi bir tosh bilan ikki qushni urmoq bo'lsa, bunda ikki tilda ham umumiy ma'no o'xshash bo'lib, obraz farq qilishi kuzatiladi. Bu idiomalarining ham kelib chiqishi ov jarayonlariga borib taqaladi. Obrazlar quyon va qush, o'xshashligi ikkita hayvonning bitta vosita bilan o'ldirilishi hisoblanadi. Bundan tashqari "white lie" "oq yolg'on" deb tarjima qilinadi. Angliya madaniyatida bu idioma "zarar yetkazmaydigan yolg'on" degan ma'noni anglatadi. "White" – oq rang madaniy jihatdan poklik, ezgulik ramzi bo'lgani uchun ham ushbu konteksga mos hisoblanadi. Qolaversa, "black sheep" iborasi yomon odam degan ma'noni bildiradi. Bunda qora rang yovuzlik, yomonlik kabi salbiy bo'yoqqa ega. "Black market" noqonuniy savdo bozorini ifodalaydi. Bu holatda qora rang qora – yashirinlik va qonunbuzarlik ramzi. O'zbek tilida ham qora rang bilan bog'liq frazeologik birliklar mavjud. Xususan, "qora xat" urush davrlarida o'lim xabarini anglatgan. "Qora kunlar" esa qiyin, musibatli davrlar ma'nosini anglatadi.

Biz nutqimizda ishlatayotgan so'z va iboralarning ma'nolarini bilishimiz va muayyan vaziyatga moslab ayta olishimiz mumkin, lekin har doim ham ularning kelib chiqishi haqida bilmasligimiz mumkin. Xususan, ingliz tilida "beat around the bush" iborasi o'zbek tilidagi "aravani quruq olib qochmoq" iborasiga to'g'ri keladi. Ya'ni asosiy mavzudan qochish, asosiy mavzu atrofida aylanish ma'nosini bildiradi. Bu keng tarqalgan iboraning kelib chiqishi esa Britaniyadagi ov jarayoniga borib taqaladi. Qushlarni ovlash paytida ishtirokchilar qushlarni tortib olish uchun butalarni urishardi. Shuning uchun ular ovning asosiy maqsadiga, ya'ni qushlarni aslida tutishga yetib borishdan oldin butalar atrofida aylanib yurishardi.

"Spill the beans" iborasi o'zbek tilidagi "sirni ochmoq" iborasiga mos tushadi. Bu ibora qadimgi yunon ovoz berish jarayonidan kelib chiqqan, degan fikrda umumiy fikr mavjud, ya'ni bu jarayonda loviya ishlatilgan. Odamlar ikkita rangli loviyadan birini vaza ichiga qo'yish orqali ovoz berishgan, oq rang odatda "ha" degan ma'noni, qora yoki jigarrang esa "yo'q" degan ma'noni anglatadi. Bu shuni anglatadiki, agar kimdir loviyani to'kib yuborsa, saylovning maxfiy natijalari kutilganidan oldin oshkor bo'ladi. Shuning uchun, loviyani to'kib yuborish maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish bilan bog'liq.

Ba'zi iboralarning etimologiyasi (kelib chiqishi) aniq bo'lsa-da, ayrim iboralar kelib chiqishi noma'lum yoki ehtimoliy nazariyalarga asoslanadi. Ko'plab ingliz iboralarining asl ildizlari boshqa tillardan bo'lishi ham mumkin. Masalan, "ko'zimning quvonchi" iborasi qadimgi inglizcha apul (meva) va geogn (ko'z) so'zlaridan kelib chiqqan deb hisoblanadi.

Idiomalar yozma ravishda yozilishidan oldin og'zaki nutqda ishlatilgan, deb ishoniladi. Buning sababi, ular ko'pincha so'z o'yinlariga yoki yozma ravishda tarjimada yo'qolishi mumkin bo'lgan boshqa lingvistik vositalarga tayanadi. Masalan, ingliz tilida "to have a chip on your shoulder" iborasi kimnidir duelga chaqirish uchun yelkaga yog'och parchasini qo'yish odatidan kelib chiqqan.

Xuddi shunday o'zbek tilida ham frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Ular badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llanadi. Jumladan, "bir yostiqa bosh qo'ymoq" iborasi o'zbek tilida o'zining asl ma'nosidan kengroq tushuncha ifodalaydi. "Yostiqa" so'zi o'z ma'nosidan tashqari uy-joy, birga hayot kechirish" timsoli hisoblanadi. Ya'ni bu birikma turmush qurgan er va xotonga nisbatan ishlatilib, milliy urf-odatlardan oilaviy sadoqat, totuvlik, mehr-oqibatni anglatadi.

Bundan tashqari, kamdan-kam ma'nolarida qo'llaniladigan "anqoning urug'i" iborasini olaylik. Tarkibidagi "anqo" aslida nima? Nega aynan bu so'z olingan? Anqo – afsonaviy qush. Qadimgi Sharq xalqlari ertakdostonlarida bosh qahramon qilib olingan. Anqo qushi insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan xususiyati borligi, patlari va qanotlari oltin, kumushdan deya ta'riflanadi. Qadimda xalq orasida u baxt qushi nomini ham olgan, ya'ni anqo – baxt, tole timsoli, kimga soyasi tushsa, o'sha inson baxtli bo'ladi. Lingvokulturologik jihatdan bu idioma Sharq folklori va afsonaviy obrazlarga tayanadi. O'zbek xalq tafakkurida nodir, kamyob kabi tushunchalarni anglatadi.

Ba'zi iboralar borki, boshqa tillarda ekvivalenti topilmaydi, bunda umumiy tasvirlab tarjima qilinadi. Xususan, o'zbekcha kelin salom, tuzini yemoq, qiz o'stirmoq kabi frazeologik birliklar ingliz tilida ekvivalentsiz hisoblanadi. "Kelin salom" o'zbek milliy marosimi bo'lib, ingliz urf-odatlarida uchramaydi. Yoki "qiz o'stirmoq" qiz farzandni iboli, hayoli, aql-farosatli qilib voyaga yetkazish, axloqini go'zal qilish kabi ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek oilalarida qiz bola kelajakda kelin, ona, uy bekasi sifatida tarbiyalanadi, ammo Yevropada gender tengligi tushunchasi ilgari surilgani bois bu ibora bildiradigan ma'no ingliz mentalitetida mavjud emas. Xuddi shu kani ingliz tilida ba'zi frazeologik birliklarning o'zbekcha muqobil variant mavjud emas. Bunday iboralar millatning an'analari, tushunchalari va urf-odatlari bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, "under the weather" iborasi so'zma-so'z "ob-havo ostida" deb tarjima qilinadi. Qo'llanishida esa kasal ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni bunda

inglizlar betoblikni ob-havo bilan bog'laydi. Ammo bunday obraz o'zbek tilida mavzud emas.

XULOSA. Idiomalar bizga til tarixi va madaniyati haqida ko'p narsalami aytib berishi mumkin. Ushbu keng tarqalgan iboralarning kelib chiqishini tushunish orqali biz tilning boyligini va ular aytib bera oladigan hikoyalarni yaxshiroq anglashimiz mumkin. Shuni aytish joizki, lingvokulturologik yondashuv nafaqat til bilimini, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham talab qiladi. Bu yondashuv o'quvchilarda tilni to'liq kommunikativ vosita sifatida anglash, frazeologik birliklarni to'g'ri talqin qilish va ularni amaliy muloqotda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamroyev M., Muhamedova D. va boshq. Ona tili. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2007. – 256 b.

URL: <https://share.google/es4rCta9hbxGrILZv>

2. Dehqonova D. O'zbek tilidagi ayrim iboralar etimologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 148 b.

3. 7 Everyday English Idioms and Where They Come From. – Britannica.

URL: <https://www.britannica.com/list/7-everyday-english-idioms-and-where-they-come-from>

4. Why Idioms Are Used and the Origins of Idiom Use in History. – LinkedIn Articles.

URL: <https://www.linkedin.com/pulse/why-idioms-used-origins-idiom-use-history-learnlaughspeak>

5. English Idioms and Phrases. Mr. English, 2024.

URL: https://phraseshub.com/to_kick_the_bucket

6. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 240 b.

7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000. Maqola: "Anqo".

URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Anqo>